



”ARAB TILINING O’ZBEKISTONDAGI O’RNI VA UNI O’QITISH JARAYONING DOLZARB MASALALARI” TO’G’RISIDA

Toshkent Gumanitar Fanlar Universiteti

Filologiya va Tillarni O’qitish

(arab tili) FTA-01-25

Talaba: Sobirova Zinnura

Tekshirdi: Halilova Hilola

Annotatsiya: Ushbu maqola orqali arab tilining O’zbekistonda va qolgan davlatlarda qanchalik ahamiyatli ekani bayon qilingan. Shuningdek, arab tilining ilm-fani, taraqqiyot va uning Markaziy Osiyoga ta’siri qolaversa, bugungi kunda O’zbekistonda va Arab davlatlari o’rtasidagi ta’lim xususidagi aloqalar tahlil qilinadi. Bu maqolada arab tilining ikkinchi til sifatida ko’ruvchilar yoki chet tilini o’rganmoqchilar haqida fikr-mulohazalar olib borilgan. Ajdodlarimizning arab tilida qilgan ijod namunalari yorqin ifoda qilgan.

- **Kirish so’zlar :** Arab tili, chet tillari, arab ma’daniyati, o’zbek tili, islom ma’daniyati, rasmiy til, til va tafakkur, tarixiy til aloqalari.

Arab tili Qur’onni karimning nozil qilgan tili Islom madaniyati va ilm-fanning asrlar davomida rivoj topgan asosi sifatida nafaqat musulmon mamlakatlarida, balki butun dunyoda hurmat bilan o’rganiladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining rasmiy tillaridan biri bo’lgan arab tili bugungi kunda 25 dan ortiq davlatda rasmiy til sifatida tan olingan, uni ona tili sifatida so’zlashuvchilar soni 400 milliondan ortiq. Shunga ko’ra bir qancha insonlar arab tilini ikkinchi til yoki chet tili sifatida urganmoqda. O’zbekistonda va boshqa davlatlarda arab tiliga bo’lgan e’tibor talab kuchayib bormoqda. Hatokki, bizning ajdodlarimiz ham arab tilida ish faoliyatini olib borgan. Xususan, Ibn Ajrumning “Al-Ajurrmiya” asari va Zamaxshariyning “Al-Mufassal”, Alisher Navoyining “Hamsa”, Abu Ali Ibn Sinoning “Tib qonunlari” kabi asarlar arab tilida yozilgan. Bu asarlar bir necha



asrlar davomida Yevropa universitetlarida ham asosiy tibbiy qo'llanma sifatida foydalanilgan. Arab tili bu yerda ilm-fanning xalqaro tiliga aylanganini ko'rsatadi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Arab tilining ilmiy tilga aylanishi ta'lim tizimida ham chuqur o'zgarishlarga olib kelishi hammamizga ayon. Bugungi kunda arab tili ta'limini o'rgatishda zamonaviy metodikalar kerakli tajribalardan foydalanilmoqda. Masalan: Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Islom akademiyasi bular o'qitish metodikasi haqida izlanishlar olib bormoqda. Arab tilining ilm-fan va ta'limotidagi ro'li Markaziy Osiyo ilmiy rivojlanishning yetakchi usulidir. Arab tili vositqasida Markaziy Osiyo olimlari Sharq va G'arb ilmiy me'rosini uyg'unlashtira olgan.

Arab ma'daniyati, ayniqsa, VIII-XII asrlar oralig'ida "Islomning oltin davri" deb nom olgan davrda dunyo ilm-fanning yetakchi kuchiga aylangan. Bu davrda arab tili nafaqat Qur'on tili sifatida, balki falsafa, tibbiyot, matematika, aftanomiya, geografiya, fiqh, adabiyot va tarix yozuvining asosiy vositasi bo'lgan. Ushbu ilmiy yuksalish faqat arab dunyosi bilan chegaralanmagan: Bog'dod, Damashq, Basra, Qoxira kabi markazlardan tashqari, Buxoro, Samarqand, Xiva, Farg'ona kabi Markaziy Osiyo shaharlarida ham Arab madaniyatining ta'siri chuqur sezilgan. Bu o'z navbatida xalq orasida savodxonlikning kengayishiga, ilm-fan va tafakkur rivojiga olib kelgan. Ayniqsa, arab yozuvining keng qo'llanilishi natijasida ko'plab qo'l yozmalar yaratilib, hozirgacha yetib kelgan boy ilmiy-madaniy meros shakillangan. Shuningdek, arab madaniyati orqali Markaziy Osiyoga kirib kelgan falsafiy, adabiy va estetik g'oyalar mahalliy an'analar bilan birlashib, boy va betakror sivilizatsiyani vujudga keltirdi. Bu jarayonda arab tili nafaqat tashqi ta'sir vositasi, balki ichkimadaniy taraqqiyotning ham bir qismi sifatida qatnashgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Risolat Abdushukurova (2023). BAA O'zbekistonda Arab tili ta'limi va ma'daniyati markazini ochishi mumkin.
2. Tursunov S.(2023). Til almashinuvi va madaniyatlararo bog'liqlik. Linguistic Research, Vol. 11, No.3, pp.60-74.



3. Xaydarov Sh. Arab tili va madaniyatini o'qitishda lingvomadaniy yondashuv asoslari \\\ Jahon tillari . -2023.

-No1.-B.60-65.

4. Ibn Ajurrum. Al-Ajurrumiya: A Cassical Arabic Grammar.

-Beirut: Dar al-Fikr, 2005. -96 p